

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Ko'lyozma huquqida
UDK: 336.51(575.1)*

Xolmatov Shoxidjon Axmadjon o'g'li

**Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erkin
iqtisodiy hududlarni rivojlantirishning ahamiyati**

**5A230603- Investitsiyalarni boshqarish (tarmoqlar va soxalar bo'yicha)
mutaxassisligi**

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: i.f.n. Xoshimov E.A.


TOSHKENT – 2019

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida erkin iqtisodiy zonalar va ularni tashkil etishning umumnazariy masalalari o'rganilgan, O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi va ularning moliyaviy masalalari tahlil qilingan, O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan..

In this dissertation free economic zones, theoretical bases of the organization free economic zones are studied; the organization and financial questions of free economic zones in Uzbekistan is analyzed; the priority directions of development of free economic zones in the Republic of Uzbekistan are developed.


Magistrlik dissertatsiya ishi "Bank ishi" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 9 - sonli bayonnoma «29» noyabr 2019 y.

Ilmiy rahbar: i.f.n. E.Xoshimov


imzo

_____ sana

Magistr: Sh.Xolmatov


imzo

_____ sana

"Himoyaga tavsiya etiladi"
"Bank ishi" kafedrasi mudiri
dots. U.Duskobilov _____
" 20 " noyabr 2019 yil

Himoya 2019 yil " 03 " noyabr soat 14⁰⁰ da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. ERKIN IQTISODIY ZONALAR VA ULARNI TASHKIL ETISHNING UMUMNAZARIY MASALALARI.....	9
1.1 Erkin iqtisodiy zonalar tushunchasi, kelib chiqishi va tashkil etishdagi yondashuvlar.....	9
1.2 Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy zonalarining maqsadi va tasnifi.....	17
1.3 Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va boshqarishning xorij tajribasi.....	25
I bob bo'yicha xulosa.....	37
II BOB. O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING TASHKIL ETILISHI VA ULARNING MOLIYAVIY MASALALARI.....	39
2.1 O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya faoliyatini tashkil qilish imkoniyatlari tahlili.....	39
2.2 Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishning iqtisodiy-moliyaviy va huquqiy shart-sharoitlari.....	46
2.3 O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish amaliyoti.. ..	51
II bob bo'yicha xulosa.....	64
III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI....	66
3.1 O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda jahon tajribasidan foydalanish yo'nalishlari.....	66
3.2 O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish istiqbollari.....	75
III bob bo'yicha xulosa.....	80
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	82
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	86

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini modernizatsiyalash uchun investitsiyalar jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Shu bois yurtimizda chet el sarmoyasi ishtirokidagi sanoat korxonalari sonini ko'paytirish hamda mahalliy xom ashyodan eksportbop mahsulotlar tayyorlashga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bunda xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay investitsiya muhiti muhim omil bo'lmoqda. Xorijiy tajribadan ma'lumki, milliy iqtisodiyotda qulay investitsiya muhitini yaratishda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes sub'ektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferentsiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim"¹. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi, mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining yanada rivojlanishiga va istiqbolda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish»² muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berildi.

Milliy iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilinishi iqtisodiyotda tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va ularning uzluksizligini ta'minlash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2018 yil 28 dekabr

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. PF-4947-son 2017 yil 7 fevral. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 y., 6-son, 70-modd.